

ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RLARI TAHLILI

Raxmonqulova Feruza Akmal qizi
UzSWLU, foreign language and literature 3rd faculty

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar berilgan. Uning she'rlari yorqinliligi, olam-olam ma'no ifodalashi har bir satrlar bilan olib berilgan. Shuningdek, shoir she'rlarining lingvistik tahlili fikrmulohazalar bilan keltirilgan.

Kalit so'zlar: she'r, lingvistik tahlil, tashbeh, tabiat, jonlantirish, o'xshatish, bolalik

Aleksandr Faynbergni har eslaganda tabiat, vatan manzaralari singdirilgan she'rlarini, hayot haqiqati bilan bog'liq tarzda ifodalagan pyesalarini eslamaslikning hech ham iloji yo'q desak, mubolag'a bo'lmaydi, albatta. Shoir va yozuvchi Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Yosh bolalik paytidan tabiatga oshiq, undagi har bir tirik mavjudotga mehribon bo'lgan shoir keyinchalik shulardan ilhomlanib ijod maydoniga ishonch bilan kirib keldi. Insonning eng beg'ubor lahzalari hisoblangan shoirning bolalik yillari Sobiq Jukovskiy ko'chasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shoirning ijodiy merosi 15ta she'riy to'plam, ko'plab ssenariylar, tarjimalarni o'z ichiga oladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, tabiatga oshiq shoir qalbi har bitta tabiatning kichkina mo'jisidan ilhomlanib she'rlar bitdi. Hayot bilan hamnafas tarzda har bitta mayda detallarda go'zallik ko'ra olgan shoir o'z kitobxonlarini aynan shu xususiyati bilan o'ziga rom etdi. Mayda detallar haqida gap ketar ekan, uning "Varaq" she'ri gapimizning yaqqol isboti hisoblanadi:

Yulduzlarni asraydi falak,
Teran dengiz asrar durlarni.
Daftarimdan yirtilgan varaq,
Asragin men yozgan she'rlarni.

Bu to'rtlikning lingvistik tahliliga to'xtalar ekanmiz, she'rning birinchi bandida jonlantirish san'atining guvohi bo'lamiz, ya'ni falakning yulduzlarni, teran dengizning o'z bag'ridagi qimmatbaho durlarini asrashini eslatib, daftaridan yirtilgan she'rlari yozilgan varaqqa qarab, unga o'z ijod mahsulini asrashini so'raydi. Bu yerda nafaqat jonlantirish san'ati, balki yashirin tarzda kelgan o'xshatish san'atini ham ko'rishimiz mumkin. Ijodkor she'rlarini tahlil qilishda davom etar ekanmiz uning keying to'rtligi:

She'r nafaqat o'qimoq, uqmoq,
She'r yurakda yangragan tovush:
Qutqargandek taygada so'qmoq,
Tebrangandek ko'llarda qamish.

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Bunda Faynberg she'r haqida to'xtalar ekan, buni faqat oddiy o'qib va uqigan bilan ko'ngil to'lmasligini, she'r bu aslida yurakdan yangragan ovoz, tovush ekanligini ta'kidlaydi. Oxirgi ikki qatorda ham -dek qo'shimchasi yordamida o'xshatish, ya'ni tashbeh san'atini yuzaga keltirilgan. She'rning keyingi, oxirgi, to'rtligida ham oldingi bandlardagi she'riy san'atlarni uchratishimiz mumkin.

Har satrim – jon, har she'rim – yurak,
O'rmon, qushlar, bulutlarga xesh.
Daftarimdan yirtilgan varaq,
She'rlarimni asra peshma-pesh.

Faynbergning bunday oddiy, kichik narsalar orqali go'zal bir she'r yaratishini uning tug'ma qobiliyati bilan bog'lilik desak, adashmagan bo'lamiz. Faynberg rus shoirlaridan Sergey Yesenin, o'zbeklardan Usmon Nosirning qisqa so'z bilan olamolam ma'no ifodalay olish qobiliyatini o'zida mujassam etgan baynalmilal shoirdir. Uning yana bitta ijod mahsuli "Shamol" she'rida ham tabiatning go'zal chizgilari bizni bee'tibor qoldirmaydi.

Tun. Bolxonaga chiqaman bir pas.
Navbahor. Xurillab turadi shamol.
Oqargan sochimga, yuzimga emas,
Yurakka, yurakka uradi shamol.
Yoshlik-u baxt-shodlik, kulfat-g'am bilan,
Dengiz-u bog'larda yeladi bevosh.
Shamolning qarisi bo'lmas umuman,
Shamol hamisha yosh, shamol doim yosh.

Faynberg – tug'ma iste'dod egasi. She'rning dastlabki satrlaridan shuni bilib olishimiz mumkinki, bu asar ijodkorning keksalik davri mahsuli: "Oqargan sochimga, yuzimga emas". Oqargan soch – keksalikka ishora qilish bilan birga, lirik qahramonning uzoq masofani bosib o'tgani, hayotda ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirganiga va shu sababdan ham shamol aynan qahramonning yuragiga urilishi tasvirlanadi. Ushbu she'rning keyingi bandida zidlash yuzaga kelgan, ham shuningdek she'rning boshidan oxirigacha sifatlashdan mohironalik bilan foydalanganlik diqqatni tortmasligi mumkin emas.

Aleksandr Faynberg baynalmilal shoir bo'lganligi sababli o'z ijodida ikkala millatning ham urf-odatlari, qadriyatları va odamlarga xos bo'lgan xarakterni tasvirlashga harakat qilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, u zamon bilan hamnafas tarzda qalam tebratdi. Uning katta yutug'i tarjima sohasiga ham qo'l urganligidir. Uning tarjimalari – shoir merosining ajralmas bir bo'lagi.

Asrlar qa'ridan miltirar umid,
Yurakda og'igan kabi jarohat –
Qaydadir saodat sohili majud,
Unda umrboqiy muhabbat, rohat.

Umidning miltirashi orqali o'xshatish san'ati noziklik bilan ifodalangan. Shoir xuddi ipga marjon tergan kabi she'r dagi so'zlarni shunday qatorga teradiki, bu yo'nalishdagi she'rni o'qigan har bir insonni o'ziga mahliyo etadi. Sevgi-muhabbat, yoshlikni ulug'lash, hayot tasvirlari shoir she'riyatining asosiy bo'g'inidir. Shoir she'riyatining lingvistik muhokamasiga to'xtalar ekanmiz, u o'z she'rlarida qarama-qarshilik (zidlash), o'xshatish (tashbeh), jonlantirish va sifatlash kabi san'atlaridan unumli ravishda foydalana olgan. Deyarli uning har bir ijod namunasida biz buning guvohi bo'lishimiz mumkin. Zamon bilan hamnafas tarzda yashagan shoir o'sha davr odamlarining qalb kechinmalari, hissiyotlarini ham rangli bo'yoqlar bilan tasvirlagan. Uning nazdida ijod maydonining jang-sinovlari, aslida, og'ir bo'lsa-da, bu maydonda tirik qolish uchun barchasiga bardosh berish eng sharafli burch edi.

Shoirning orzulari ushaldi. Bugungi kunda uning nomi, asarlari kitobxonlar orasida qiziqish bilan izlanadi, sevib o'qiladi. Katta-yu kichikning qalbidan birdek joy egallagan Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodi hamisha barhayot. Shoir lirikasi she'riyatning go'zal durdonalari bilan bezatilganligi tufayli beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xazratqulova, U. (2020). Aleksandr Faynbergning yorqin xotirasiga. Yangi O'zbekiston. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqinxotirasiga>
2. <https://www.uzswlu.uz/faculty/view/10>
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/rustammusurmon-yonib-turar-derazam-har-tun-2009>.
4. <https://arboblar.uz/ru/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>